

## TIL O'QITISHDA PODKASTLAR ORQALI TALABALARNING TO'G'RI TALAFFUZ QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*M. Maxmudova<sup>1</sup>, Ch. Ummatkulova<sup>2</sup>*

*Annotatsiya:*

Ushbu maqola podkastlar orqali til o'rganishda talabalarning talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarini o'rganadi. Unda podkastlar til o'rganish va mukammal talaffuzni o'zlashtirishga qanday ta'sir qilishi, taqlid qilish uchun namuna bo'lib xizmat qilish bilan bir qatorda chet tilidagi audiovizual materiallarni tinglash va talaffuzni mashq qilishdek keng imkoniyatlar taqdim etishiga alohida to'xtalib o'tiladi. Maqolada, shuningdek, talaffuzga yo'naltirilgan podkastlarning afzalliklari, til o'rganuvchilar uchun podkastlar taqdim etadigan qator imkoniyatlar muhokama qilinadi.

*Kalit so'zlar:* talaffuz ko'nikmalari, til o'rganish, taqlid qilish modellari, tinglab tushunish, talaffuz amaliyoti, talaffuzga yo'naltirilgan podkastlar

*doi:* <https://doi.org/10.2024/tmbye104>

---

**Kirish.** Podkastlar to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini yaxshilashga intilayotgan til o'rganuvchilar uchun qimmatli vositaga aylandi. Ular talabalarni chet tilida so'zlashishda har bir so'z va ibora aslida qanday jaranglashi bilan tanishtirishning qulay hamda samarali natijani kafolatlay oladigan vosita vazifasini o'taydi, taqlid qilish uchun modellarni taqdim etadi va o'rganilganlarni amaliyotda qo'llash uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada podkastlar talaffuzni yaxshilashga qay darajada hissa qo'shishi ko'rib chiqiladi va aynan to'g'ri talaffuzni shakllantirishga yo'naltirilgan podkast materiallari bilan tanishtirishda muhim manba vazifasini o'taydi. Til o'rganuvchilar podkastlardan foydalanish va ular asosida amaliy mashqlarni bajarish orqali xorijiy tilda to'g'ri va ravon so'zlashish mahoratlarini sezilarli darajada yaxshilashga erisha oladilar.

**Asosiy qism.** Podkastlar o'quvchilarning talaffuz ko'nikmalarini bir necha jihatdan yaxshilash uchun qimmatli vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Birinchidan, podkastlar o'quvchilarga asl og'zaki til bilan tanishish imkonini beradi, bu ularga o'rganilayotgan chet tili fonetikasining o'ziga xos qonun-qoidalarini anglash, ushbu tilda intonatsiya, ritm va urg'uni to'g'ri ishlatishni o'rganish imkonini beradi. Podkastlarda ona tilida so'zlashuvchilarni yoki tilni yaxshi biladigan foydalanuvchilarni muntazam tinglash orqali talabalar talaffuzning nozik jihatlari bilan tanishishib boradilar va ular to'g'ri talaffuzga taqlid qilish uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Talabalar o'zlarining til o'rganishdan ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan podkastlarni tanlashlari va talaffuzi har tomonlama o'zlariga ma'qul keladigan ma'ruzachilarni topishlari

---

<sup>1</sup> *Muyassar Maxmudova, SamDCHTI "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi" kafedrasida professori, Pedagogika fanlari doktori*

<sup>2</sup> *Charos Ummatkulova, SamDCHTI "Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi" kafedrasida tayanch doktoranti*

mumkin. Ushbu podkast-informatsion dasturlarni doimiy tinglash va ularga taqlid qilish orqali talabalar o'zlarining talaffuz qobiliyatlarini takomillashtirisha oladilar. Ko'pincha suhbatlar, intervyular yoki hikoyalarni o'z ichiga olgan podkast kontenti orqali talabalar tinglash qobiliyatlari ustida ishlashlari va bir vaqtning o'zida eshitadigan tovushlar, intonatsiya va urg'uning qanday ishlatilishiga taqlid qilish orqali talaffuzlarini yaxshilashlari mumkin.

Podkast epizodlarini bir necha marta takrorlash talaffuzni yaxshilashning yana bir afzalligi hisoblanadi. Muayyan audio parchalarni qayta-qayta tinglash orqali talabalar to'g'ri talaffuz tamoyilari haqidagi tushunchalarini mustahkamlashlari va ularni yanada samaraliroq o'zlashtirishlari mumkin. Ba'zi podkastlar talaffuz mashqlariga e'tibor qaratadi, o'quvchilarga maqsadli amaliyot va yo'l-yo'riq beradi. Podkastlarning asosiy afzalliklaridan biri ularning istalgan qurilma, xususan, mobil telefon, kompyuter, planshet kabilar orqali istalgan vaqtda tinglash imkoniyatidir. Talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda podkastlarga kira oladilar, bu esa ularni til o'rganuvchilar uchun qulay vositaga aylantiradi. Podkast tinglash kundalik yumushlarni bajarish mobaynida ham amalga oshirilishi mumkin, masalan, talabalar, transport vositasida ketayotib, uyda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish barobarida yoki bo'sh vaqtlarida ularni tinglab talaffuzni mashq qilishlari mumkinligi ularning naqadar qulay vosita ekanligini ko'rsatib beradi. Xullas, podkastlar aksariyat hollarda mavzularning keng doirasini qamrab oladi, ularni tinglash orqali talabalar o'zlarining so'z boyliklarini samarali ravishda kengaytirish hamda so'zlarni kontekstda talaffuz qilishni o'rganishlari va muloqot qobiliyatlarini yaxshilashlari mumkin. Masalan, o'quvchi ilmiy sohaga qiziqadi, deylik. Ular soxa mutaxassislari turli ilmiy tushunchalar va kashfiyotlarni muhokama qiladigan ilmiy mavzudagi podkastni tinglashlari mumkin, "hypothesis/ faraz", "experiment/ tajriba" yoki "genetics/genetika" kabi fanga oid maxsus lug'at bilan muntazam tanishish orqali talaba o'zining ilmiy lug'atini asta-sekin kengaytira oladi.

Umuman olganda, podkastlar o'quvchilarga turli lug'atlarni qiziqarli va kontekstli tarzda ochib beradigan, so'z boyligini kengaytirishga va umumiy bilimlarini oshirishga yordam beradigan manba sifatida ken qo'llanilishi mumkin.

Talaffuzni yaxshilashda podkastlarning afzalliklaridan yuqori darajada foydalanib natijalarni yanada yaxshilash uchun talabalar turli mashqlar bilan faol shug'ullanishlari foydali bo'ladi, ular podkastning bir qismini tinglaydilar va uni baland ovozda takrorlaydilar va ma'ruzachining talaffuziga imkon qadar o'xshatib talaffuz qiladilar. Bundan tashqari, talabalar nazariya va amaliyotda o'rganganlarini mustahkamlash uchun fonetikaga doir qo'llanmalar, fonetik transkripsiyalar va talaffuz ilovalari kabi vositalardan foydalanishlari mumkin. Quyida biz podkastlar orqali talaffuz ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan bir nechta dasturlarni keltirib o'tamiz:

- "Fluent Show": Kerstin Cable tomonidan boshqariladigan ushbu podkast til o'rganishning turli jihatlarini, jumladan, talaffuzni o'z ichiga oladi. U talaffuzni yaxshilash bo'yicha fikrlarni taqdim etuvchi qimmatli maslahatlar, strategiyalar va soha mutaxassislari bilan suhbatlarni qamrab oladi.

- "English Pronunciation Pod": suxandon Anna tomonidan olib boriladigan ushbu podkast asosan ingliz tilidagi talaffuz ko'nikmalariga qaratilgan. U ingliz tilini o'rganuvchilar uchun turli tovushlar, so'z urg'usi, intonatsiya va umumiy talaffuz muammolari hamda ularning yechimlari kabi mavzularga yo'naltirilgan.

- "News in Slow Languages": Bu turkum ingliz, ispan, fransuz, italyan va nemis kabi bir nechta tillarda yuz berayotgan o'zgarishlar haqida atroflicha ma'lumot beradi. Bu podkast tinglab tushunish va aniq talaffuz qilish qobiliyatlarini mashq qilish imkoniyatini bera olishi bilan o'ziga xos manbadir.

- "Luke's English Podcast": Lyuk Tompson boshchiligidagi ushbu podkast turli mavzularda ingliz tili darslari, intervyular va munozaralar kabi xilma-xil ma'lumotlarni taqdim etib boradi. Ushbu podkast bilan doimiy ishlash ingliz tilidagi tabiiy nutqning egallanishiga ijobiy ta'sir qiladi va talaffuz bo'yicha maslahatlar va usullarni ham o'z ichiga oladi.

- "Spanish Obsessed": Ushbu podkast ispan tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan va ispan tilida suhbatlar, lug'at boyligini oshirishga qaratilgan darslar va talaffuzni rivojlantirish uchun amaliy mashqlarni o'z ichiga oladi. U turli aksentlarni qamrab olgan va ispan tilida so'zlashuvchi dunyoning madaniyati haqida ham tushuncha beradi.

- "Coffee Break French/Spanish/German/Italian": Radio Lingua tomonidan taqdim etilgan ushbu alohida podkastlar fransuz, ispan, nemis va italyan tillarini o'rgatishga qaratilgan. Ular turli darajadagi o'quvchilar uchun tuzilgan darslar, lug'at va talaffuz amaliyoti kabi tarmoqlardan iboratdir.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, til o'rganishni yaqinda boshlaganlar uchun mo'ljallangan va talaffuzni yaxshilashga qaratilgan podkastlar haqida ham to'xtalib o'tamiz:

*English Class101* tomonidan "*English pronunciation for beginners*": Bu podkastlar turkumi boshlang'ich darajadagi ingliz tilini o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Unda unlilar, undoshlar, so'z urg'usi va intonatsiya kabi muhim talaffuz mavzulari aniq tushuntirishlar va amaliy mashqlar bilan birgalikda o'rgatiladi.

*Pronunciation Power-Up*: Kim tomonidan mezbonlik qilinadigan ushbu podkast ingliz tilini boshlang'ich o'rganuvchilarga tovushlar, urg'u, ritm va intonatsiyani oson hamda qiziqarli tarzda o'rgatib boradi.

Yuliya bilan ingliz tilidagi "*EasyPronunciation.com*": Ushbu podkast ingliz tilidagi tovushlarni, so'z urg'usini va talaffuz ko'nikmalarini yaxshilash uchun bosqichma-bosqich ko'rsatmalar berishga qaratilgan.

*FrenchPod101* tomonidan "*Learn French through podcasts*": Ushbu podkastlar seriyasi fransuz tilini o'rganishni boshlaganlar uchun mo'ljallangan. U talaffuz darslari, lug'at va kundalik so'zlashuv mobaynida faol ishlatiladigan iboralarni qamrab oladi va fransuz tilida talaffuz ko'nikmalarini yaxshilash uchun mustahkam poydevor yaratishda ulkan hissa qo'sha oladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan podkastlar asosan chet tilini o'rganishni yaqinda boshlaganlar uchun nihoyatda samarali vosita bo'lib xizmat qilish barobarida foydalanuvchilarni turli mazvularga oid qiziqarli ma'lumotlar bilan ham tanishtirib boradi. Bundan tashqari til o'rganuvchilarga o'zlarining o'rganish uslublari (*learning style*)ga mos keladigan to'g'ri podkastni tanlashlariga yordam beradigan ba'zi maslahatlarni ham aytib o'tishni zarur deb bildik:

Eng avvalo, o'quvchilar til o'rganishdan ko'zlayotgan asosiy maqsadlarini ya'ni ular podkast tinglash orqali nimaga erishmoqchi ekanliklarini, bu talaffuzni yaxshilashmi, so'z boyligini kengaytirishmi yoki tinglab tushunishni kuchaytirishmi, aniqlab olishlari kerak. Maqsadlarini tushunish ularga o'ziga xos ehtiyojlariga mos keladigan podkastlarni topib ish olib borishga yordam beradi. Podkastlar bilan ishlashda o'quvchilarning til darajasini hisobga olish kerak. Ular muayyan til bilish darajasidagi foydalanuvchilar uchun maxsus

ishlab chiqilgan podkastlarni izlashlari kerak. Ba'zi podkastlar tilni boshlang'ich darajada biladiganlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, boshqalari o'rta yoki yuqori darajadagi o'quvchilarga mos ravishda tuzilgan. Podkastlarni tanlash yoki muayyan ilovalarni yuklashdan oldin o'quvchilar tavsif va sharhlarni o'qib chiqishlari kerak. Bu ularga podkastning mazmuni, uslubi va yondashuvi haqida tushuncha beradi. Ular talaffuzni mustahkamlaydigan, aniq tushuntirishlar beradigan va o'z maqsadlariga mos keladigan amaliy mashqlar yoki maslahatlarni taklif qiladigan podkastlar bilan ishlashlari ijobiy natijaga erishishda nihoyatda muhim sanaladi.

Podkastning namunaviy epizodlari yoki qismlarini tinglash ham foydalidir. Bu o'quvchilarga mezbonning nutq uslubi, tezligi va ma'lumotni taqdim etishdagi o'ziga xosliklarni his qilishlariga yordam beradi. Natijada podkast ularning o'rganish uslubiga mos keladimi yoki yo'qmi, hikoya qiluvchining ovozi va gapirish uslubi qay darajada jozibali va tushunarli ekanligini aniqlab oladilar. Podkastlar taqdim etayotgan qo'shimcha materiallarga ham e'tibor qaratish muhimdir. Ba'zi podkastlar yanada yaxshi natijalarga erishishga xizmat qiladigan transkriptlar, lug'atlar ro'yxati yoki mashqlar kabi qo'shimcha resurslarni taklif qiladi. Til o'rganuvchilarga podkastlar bilan birgalikda ushbu qo'shimcha manbalarning ham taqdim etilishi ularning tinglab tushunish va talaffuz qilish amaliyoti uchun yanada foydali bo'ladi.

Demak, chet tilini o'rganayotgan talabalar o'zlari yoqtiradigan va qiziqarli bo'lgan podkastni tanlashlari nihoyatda muhim. Agar kontent ular uchun qiziqarli bo'lsa, bu ular ishtiyoq bilan o'z ustilarida ishlashlariga va muntazam tinglash odatining shakllanishiga turtki bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, talabalar o'z o'rganish uslublari, darajasi va qiziqishlariga mos keladigan podkastlarni topmaguncha turli podkast dasturlarni sinab ko'rishlari tabiiy holatdir.

“*Shadowing*” ya'ni “*Taqlid qilish*” talaffuzni yaxshilashning samarali usullaridan biri bo'lib, uni podkast tinglash amaliyotiga osongina kiritish mumkin.

Talabalar qanday qilib “*native speaker*” ya'ni chet tilini ona tili sifatida foydalanuvchi kishiga taqlid qilishni podkastlar bilan ishlash jarayonida qo'llashlari mumkin degan savolga quyidagicha izoh berish mumkin:

Birinchiidan, ular diqqatni qaratmoqchi bo'lgan podkast epizodlarini tanlashlari kerak. Bu suhbat, monolog yoki ularni qiziqtiradigan boshqa turdagi manba bo'lishi mumkin. Shundan so'ng, ular tanlangan segmentni diqqat bilan tinglashlari kerak, so'zlovchi ovozining talaffuzi, ritmi, intonatsiyasi va umumiy oqimiga katta e'tibor berishlari kerak. Tinglagandan so'ng, ular har bir ibora yoki jumlaning darhol baland ovozda takrorlashlari lozim. Maqsad - so'zlovchining talaffuziga iloji boricha yaqinroq taqlid qilish, ularning ritmi, intonatsiyasi va urg'uni qo'yish texnikasini o'zlashtirish. “*Shadowing*”da talabalar alohida tovushlar, so'z urg'usi va segmentdagi har qanday qiyin tovushlar yoki so'zlar kabi tafsilotlarga e'tibor berishlari kerak. Ular qiyin yoki ko'proq mashq qilishlari kerak bo'lgan har bir jihatni qayd etishlari kerak. Agar epizod juda uzun yoki murakkab bo'lsa, talabalar uni kichikroq bo'limlarga ajratgan holda o'rganishlari mumkin. Ular talaffuzlari to'g'ri va ravon jaranglamaguncha, har bir bo'limni alohida mashq qilishlari kerak va keyin asta-sekin to'liq epizodni o'zlashtirishga o'tishlari kerak. Talabalar har bir takrorlashda talaffuzlarini yaxshilashga e'tibor qaratib, taqlid qilish mashqlarini bir necha marta takrorlashlari kerak. Ular o'z ovozlari e'tibor berishlari va asl talaffuzga mos kelmayotgan so'z yoki iboralarga tuzatish kiritishga harakat qilishlari kerak.

“Shadowing” texnikasidan foydalanar ekanmiz ma’ruzachining ortidan takrorlaganlarimizni mobil qurilmaga yozib olish va uni asl podkast bilan solishtirish orqali podkastdagi asl talaffuz va uning biz tomonimizdan yozib olingan nusxasi o’rtasidagi har qanday farqni aniqlashimiz mumkin. Bu o’z-o’zini baholash, tuzatishlar qilinishi kerak bo’lgan sohalarni aniqlash va vaqt o’tishi bilan kamchiliklarning bartaraf etilishini ta’minlaydi. Talaffuz ko’nikmalarida sezilarli o’zgarish hamda o’sishni ko’rish uchun talabalar muntazam ravishda mashq qilishlari kerak. Ushbu mashg’ulotni har kuni yoki haftada bir necha bor takrorlashga yetarlicha vaqt ajratish zarur hisoblanadi va bu kutilgan natijaga erishishni kafolatlaydi.

Shuni yodda tutish kerakki, “shadowing”ning maqsadi ona tilida so’zlashuvchilarga taqlid qilish orqali tabiiy va aniq talaffuzni rivojlantirishdir. Avvaliga bu qiyin bo’lishi mumkin bo’lsa-da, izchil amaliyot bilan talabalar talaffuzda sezilarli rivojlanishga erisha oladilar.

“Shadowing”dan tashqari talabalarning chet tilida to’g’ri va ravon talaffuzini shahllantirishga yordam beradigan bir qancha boshqa usullar ham mavjud. Shulardan biri “Minimal pairs”-“minimal juftliklar” amaliyoti bilan shug’ullanish ham foydali bo’lishi mumkin. Minimal juftliklar “cat” va “cut” kabi faqat bitta tovush bilan farq qiluvchi so’zlardir. Minimal juftliklarning qanday talaffuz qilinishini tinglash va ularni baland ovozda aytishni mashq qilish, talaffuzdagi nozik farqlarga e’tibor berish orqali ular bir-biriga yaqin tovushlarni farqlash va o’xshatib talaffuz qilish qobiliyatini rivojlantirishlari mumkin.

Fonetik transkripsiyalardan foydalanish o’rganilayotgan chet tilining o’ziga xos tovushlari va belgilarini tushunish uchun foydali vositadir. Ushbu transkripsiyalardan foydalangan holda ovoz chiqarib o’qishni mashq qilish orqali o’rganuvchilar alohida tovushlar va ularning kombinatsiyalarining to’g’ri talaffuziga e’tibor berishlari mumkin, bu esa aniqroq va to’g’ri talaffuzga olib keladi.

Mashqlar, interaktiv harakatlar va talaffuz bo’yicha fikr-mulohazalarni taqdim etadigan turli ilovalar va vositalar mavjud. Ushbu manbalar ko’pincha nutqni tinglab undagi aniqlikni baholash va takomillashtirishning muayyan sohalari bo’yicha ko’rsatmalar olish uchun foydalaniladi. Masalan, “ELSA Speak” (English Language Speech Assistant) shunday ilovalardan bir bo’lib, bu ingliz tilidagi talaffuzni yaxshilashga qaratilgan mobil ilovadir. U real vaqt rejimida so’zlovchining nutqni baholab kerakli fikr-mulohazalar berishga mo’ljallangan.

Shu o’rinda chet tilini ona tili sifatida qo’llovchilar bilan suhbatlashishning talaffuz ko’nikmalarini yaxshilashdagi ulkan ahamiyatini ham ta’kidlab o’tishimiz lozim. Ularning talaffuzini muntazam tinglash, fikr-mulohazalarini so’rash xatolarni tuzatishga ko’mak beradi.

Talaffuz ko’nikmalarini yaxshilash uchun izchil amaliyot juda muhimdir. Ushbu usullarning kombinatsiyasini muntazam til o’rganish jarayonidagi mashqlar tartibiga kiritish va qiyinchiliklarga duch keladigan sohalarga e’tibor qaratish sezilarli natijalarga olib kelishi mumkin. O’qituvchilar, til o’rganayotgan do’stlar yoki fonetika bo’yicha murabbiylardan fikr-mulohazalarini so’rash hamda ularning qimmatli ko’rsatmalariga amal qilish talaffuz ko’nikmalarini yanada yaxshilashi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, podkastlar til o’rganishda talabalarning talaffuz ko’nikmalarini oshirishda muhim rol o’ynaydi. Ular tabiiy og’zaki nutqning shakllanishiga ta’sir qilish, taqlid qilish uchun namuna bo’lib xizmat

qilish, tinglab tushunish va talaffuz qilish amaliyotini osonlashtirish, takrorlash va mustahkamlash imkonini berish kabi ko'plab afzalliklarga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Talaffuzga yo'naltirilgan podkastlar o'quvchilarni foydali kontent bilan ta'minlaydi, shu bilan birga podkastlarning qulayligi va ko'chmaligi ularni til o'rganuvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, podkastlar kontekstli o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa talabalarga autentik audio hamda video materiallardan foydalanish imkoniyatini beradi. Podkastga asoslangan talaffuz amaliyotining afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun til o'rganuvchilar "shadowing" kabi faol usullarni o'z ichiga olgan talaffuz vositalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu resurslardan foydalanish orqali talabalar chet tilida to'g'ri va ravon talaffuzga erishishda sezilarli natijalarni qo'lga kiritishlari mumkin. Umuman olganda, podkastlar talaffuz ko'nikmalarini yaxshilash va umumiy til bilimlarini oshirishga intilayotgan til o'rganuvchilar uchun bebaho vositadir.

### **Adabiyotlar:**

- [1]. Artyushina, G., Sheypak, O., Khovrin, A., & Spektor, V. (2011). *How to Improve Listening Skills for Technical Students. 14th International Conference on Interactive Collaborative Learning (ICL2011), 11<sup>th</sup> International Conference Virtual University, Slovakia.*
- [2]. Ashton-Hay, S., & Brookes, D. (2011). *Here's a story: using student podcasts to raise awareness of language learning strategies. EA Journal, 26(2), 15-27.*
- [3]. Borgia, L. (2010). *Enhanced Vocabulary Podcasts Implementation In Fifth Grade Classrooms. Reading Improvement, 46(4), 263-72. Retrieved from Education Full Text database 263-267.*
- [4]. Chan, A., & Lee, M. J. W. (2005). *An MP3 a day keeps the worries away: Exploring the use of podcasting to address preconceptions and alleviate pre-class anxiety amongst undergraduate information technology students. In D. H. R. Spennemann, & L. Burr (Ed.), Good Practice in Practice: Proceedings of the Student Experience Conference (pp. 58-70). WaggaWagga, NSW. 5-7 September.*
- [5]. Charos, U. (2023). *The English language is one of the fundamental sources for the international sports terminology. Proceedings of International Conference on Natural and Social Sciences (pp. 211-218).*
- [6]. Creswell, J. (1994). *Research design qualitative and quantitative approaches. Thousand Oaks: Sage.*
- [7]. Edirisingha, P., Rizzi, C., Nie, M., & Rothwell, L. (2007). *Podcasting to Provide Teaching and Learning Support for an Undergraduate Module on English. Turkish Online Journal of Distance Education, 8(3), 87-107.*
- [8]. Hawke, P. (2010). *Using internet- sourced podcasts in independent listening courses: Legal and pedagogical implications. Jalt CALL Journal, 6(3), 219-234.*
- [9]. Narzikulova, M. (2023). *Language, Cognition, and Emotional Regulation: An Exploration of the Interplay. Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics, 1(4), 109-114. <https://doi.org/10.1997/y0agdk25>*
- [10]. Ummatkulova, C. (2024) "The development of cultural awareness among students in philological higher education establishments through podcasts", *Tamaddun nuri, 1(52), pp. 47-50.*